



Zokir YO'L DOSHEV,

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: yuldoshevz1995@gmail.com

Zilola KELDIBEKOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: keldibekovazilola0707@gmail.com

H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, Ma'dan hosil bo'lish jarayonlari laboratoriysi k.i.x.  
Normatov O'.A taqrizi asosida

## EXPLORATION METHODS IN SOUTHERN UZBEKISTAN COLCHEDAN-POLYMETAL MINING AREAS

### Annotation

Polymetallic raw materials are widely used in almost all branches of modern industry. The increase in demand for these types of metals on the world market, in turn, increases the relevance of identifying new promising deposits, exploration and demand assessment. An important economic and geological factor is the increase in polymetallic reserves, the study of new promising areas. Several scientific and practical studies have been carried out on the study of polymetallic-colchedan mining, which show the relevance of the development of methods of study and analysis-tracing, as well as the study of industrial mining areas by modern methods.

**Key words:** polymetallic, pyrite-polymetallic deposits, sulfides, hydrothermal, mining, prospecting methods, geochemical research methods, exploration methods.

## МЕТОДЫ РАЗВЕДКИ НА КОЛЧЕДАННО-ПОЛИМЕТАЛЛИЧЕСКИХ РУДНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЯХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА

### Аннотация

Полиметаллическое сырье широко используется практически во всех отраслях современной промышленности. Увеличение спроса на эти виды металлов на мировом рынке, в свою очередь, повышает актуальность выявления новых перспективных месторождений, разведки и оценки спроса. На территории Узбекистана также имеется несколько месторождений колчеданно-полиметаллических руд, на которых ведутся широкомасштабные работы. Проведено несколько научно-практических исследований по изучению полиметаллических колчеданных месторождений, что свидетельствует об актуальности разработки методов их изучения и анализа-разведки, а также современных методов исследования промышленно развитых рудных месторождений.

**Ключевые слова:** полиметаллические, колчеданно-полиметаллические месторождения, сульфиды, гидротермальные, горнодобывающие, поисковые методы, методы геохимических исследований, методы разведки.

## JANUBIY O'ZBEKISTON KOLCHEDAN-POLIMETALL MA'DANLI MAYDONLARIDA QIDIRISH USULLARI

### Annotatsiya

Zamonaviy sanoatning deyarli barcha tarmoqlarida polimetall xom-ashyosi keng qo'llaniladi. Dunyo bozorida ushbu turdagи metallarga talabning oshishi o'z navbatida yangi istiqbolli maydonlarni aniqlash, razvedka qilish baholash talabini dolzarbligini oshiradi. O'zbekiston hududida ham bir qancha kolchedan-polimetall ma'danli maydonlari mayjud bo'lib, ularda keng miqyosdagi ishlар olib borilmoqda. Polimetall zahiralarini ko'paytirish, yangi istiqbolli maydonlarni o'rganish muhim iqtisodiy va geologik omil hisoblanadi. Polimetall-kolchedanli ma'danlashuvini o'rganish bo'yicha bir qancha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni o'rganish va tahlil qilish - izlash metodlarini rivojlantirish hamda sanoatbop ma'dandor maydonlarni zamonaviy usullar bilan o'rganishni dolzarbligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** polimetall, kolchedan-polimetall konlari, sulfidlar, giderermal, ma'danlashuv, qidirish metodlari, geokimiyoviy tadqiqotlar usullari, qidirish usullari.

**Kirish.** Polimetall-kolchedan minerallari bo'lган pirit, xalopirit, galenit va sfaleritlar bilan birlgilikda qimmatbaho metallar shuningdek nodir va noyob yer elementlarining ham mavjudligi aniqlanmoqda. Bu o'z navbatida Janubiy O'zbekiston mintaqasidagi polimetall-kolchedan ma'danli maydonlarda zamonaviy qidiruv metodlari asosida geologik tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** V.M.Kreyter bir necha bor ta'kidlaganidek, foydali qazilma konlarini qidirishning samaradorligi va muvaffaqiyati uchta savolni hal qilish darajasi bilan belgilanadi: nimani qidirish kerak, qayerdan qidirish va qanday qidirish kerak. Birinchi savolga javob tegishli foydali qazilmalar konlarini o'rganish va ular orasida sanoat-genetik turlarni ajratish orqali beriladi. Ikkinci savolning yechimi qidiruv mezonlari va xususiyatlarini ishlab chiqish darajasiga, uchinchisi - bashoratlash va qidirish usullarining darajasi hamda holatiga, ularning samaradorligi bilan birlgilikda oqilona komplekslanishiga bog'liq.

Barcha mavjud qidiruv usullarini quyidagi asosiy guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir: 1-geologik tadqiqot usuli, 2-geofizik usullar, 3-mineral moddalarining mexanik tarqalish oreollarini o'rganishga asoslangan qidiruvlar, 4-tarqalishning geokimiyoviy oreollarini o'rganishga asoslangan qidiruvlar. Ko'p hollarda qidiruvlarning muvaffaqiyati yuqorida sanab o'tilgan usullarning kompleks qo'llanilishiga bog'liq.

Geologik tadqiqot usullari foydali qazilma konlarini va alohida ma'danli tanalarini aniqlash, shuningdek o'rganilayotgan hududning geologik tuzilishiga qarab ularning fazoviy joylashuvida qonuniyatlarini belgilash, ularning geologik xaritalarini shakkantirish bilan asoslanadi.

Geofizik tadqiqot usullari-bu geofizikaning ilmiy va amaliy bo'limi bo'lib, u yerning yuqori qatlamlarini o'rganish, foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish, muhandis-geologik, gidrogeologik va boshqa tadqiqotlar uchun mo'ljallangan.

Mineralogik usullar minerallashuv maydonlarini aniqlash, konturlash va ular orasida foydali qazilmalar bilan bog'liq mineralogik anomaliyalarni (tarqalish oreollarini) ajratish uchun ishlataladi.

Geokimyoviy tadqiqot usullar litosfera, gidrosfera, atmosfera va geokimyoviy maydonlarni o'rganish, shu bilan bir qatorda mineralashuvning geokimyoviy anomaliyalarni aniqlash, konturlash va baholash uchun ishlataladi. Geokimyoviy usullar butun dunyo bo'yab foydali qazilmalarni qidirishning eng keng tarqagan usullaridan biridir. Bu ularning turli xil geologik sharoitlarga nisbatan yuqori samaradorligi va ko'p qirraliligi bilan bog'liq.

Har bir qidiruv usuli o'z metodlariga ega va ular yillar o'tgan sari zamonaviy asbob-uskuna hamda vositalar yordamida sayqallanib, samaradorligini oshirib bormoqda.

Ma'danli maydonlarni o'rganishda asosan geokimyoviy usullar yetakchi hisoblanadi. So'nggi yillarda mineralashuv zonalarini moddiy tarkibini aniqlashda ICP-mass spektral tahlili natijalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.



1-rasm. Janubiy Qorason ma'dan maydoni hududida joylashgan paleovulqon kalderasi

ICP-mass-spektrometriya – tog' jinsi tarkibidagi turli tarkibiy qismlarning kontsentratsiyasini (izotopik, elementar yoki kimyoviy tarkibi) aniqlashga imkon beradigan moddani o'rganish va aniqlash usuli.

Usbhu usul eritirilgan na'munalarni o'rganishni talab qiladi, shuning uchun ko'pincha qattiq materiallarni eritish kerak bo'ladi. ICP tahlilida namunaning suyultirilgan qismini bug'latish uchun plazmali issiqqlik energiasi ishlataladi. ICP tahlilining sinov usuliga qarab, namunada mavjud bo'lgan elementlarni o'lgash uchun atom emissiyasi yoki ion massasi ishlataladi.

Izotopik va elementar mass spektrometriyasi hozirda ommabop bo'lib, uni qo'llash sohasi ko'paymoqda. Zamonaviy asboblar paydo bo'lishi va mass-spektrometriyaning keng ishlatalishi elementlarni tahlil qilishning asosiy vositalari sifatida qayd etilmoqda[1].

Kimyoviy laboratoriya tahlilidagi bizning tajribamiz, bizga ilg'or ICP mass spektrometrik tahlil uskunalar bilan bir qatorda metall, metall bo'linagan, suyuqliklar, bo'yoqlar va qoplamlar kabi birikmalarning kimyoviy tarkibi uchun turli xil materiallarni tahlil qilish imkonini beradi.

ICP sinovlari va tahlillari, shu jumladan atom emissiya spektroskopiyasini (ICP-AES) va mass-spektrometriyani (ICP-MS) o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Ikkala usul ham juda samarali kimyoviy tahlil usullari bo'lib, natijalar namuna turiga va yakuniy maqsadga bog'liq bo'ladi.

Rengenoskopik usul va spektral tahlil keng qo'llaniladi, bu tog' jinslarida mavjud bo'lgan elementlarni eng kichik miqdorda aniqlashga imkon beradi. Mineralarning kimyoviy tarkibi to'g'ridan-to'g'ri tog' jinslarida mikroanalizatorlar yordamida aniqlanadi.

Kolchedan-polimetall ma'danlashuvi o'zining geologik xususiyatlariga ega va shu bilan birga bir qator fatsiya-formatsiyalarga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi, bu esa turli xil qidiruv mezonlari va xususiyatlarini tanlashni taqozo etadi.

Janubiy O'zbekiston mintaqasidagi polimetall-kolchedan ma'danli maydonlarida umumiy stratigrafik-litologik, magmatogen va moddiy tarkibini aniqlash mezonlari asosida geologik-qidiruv ishlari olib borilgan.

Vulkanogen foydali qazilmalarni qidirish uchun fatsial geologik sharoitlar, xususan vulqon bo'g'zi bazalt-riolit xosilalari formatsiyasi, kraterler va parazit kanallar fatsiyalari, avtomagmatik brekchiylar, intruzivning kechki subvulkanik jismalari va boshqa guruhlarga ajratish juda muhimdir[3].

Kolchedan konlar guruhi gidermal – metosamatik, gidermal-cho'kindi va ularning aralashgan konlari kiradi. Ko'p yillar davomida bu konlar cho'kindi konlar guruhi tarkibida o'rganilib keltingan. Faqat A.Zavaritskiyning 1930-1940 yillarda Janubiy Ural xududidagi quiy devon ohaktosh va vulkanik yotqiziqlar tarkibidagi temir-mis ma'danlarini o'rganish oqibatida mustaqil konlar guruhi deb tan olingan. Deyarli hamma kolchedan konlarining ma'danlarini qanday xolat va shaklda uchramasini mineralogik tarkibi bir xil: pirit, pirrotin bazan bular bilan birga uchraydigan xalkopirit, bornit, sfalerit, galenit va boshqa sulfidlardan iborat buladi.

1950-yillarda geologik lug'atlarda to'q sariq, kulrang-sariq, yorqin-sariq rangli, yuqori mustahkam, metallsimon yaltiroqlik va o'z massiv tekstura xususiyatlariga ega, "kolchedanli ma'dan" atamasi paydo bo'ldi [4].

1960-yillarda I.X.Xamrabayev tashabbusi bilan O'zSSR Fanlar akademiyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti xodimlari Janubiy O'zbekistonda geofizik, tektonik, stratigrafik, litologik, cho'kindi ma'danlashuvi, petrologik, mineralogik va geokimyoviy kompleks izlanishlar olib borishdi. Natijada polimetall konlar guruhining geologiyasi, mineralogiyasi va geokimyosi bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi. Olingan ma'lumotlar Oltoy kolchedan-polimetall konlari bilan o'xshashlikni qayd etdi[3].

**Muhokama va natijalar.** Kolchedan-polimetall ma'danlar slanets, gneys, ohaktosh, tuf-slanets, granitoidlar orasida joylashib, turli kattalikdagi qatlamlar, tomirlar, shtok, ma'danli ustunlar va boshqa shakkarda bo'ladi. Kolchedan-polimetall ma'danlar tarkibiga pirit, sfalerit, xalkopirit, galenit, ba'zan kumush, vismut va boshqalarning sulfidlari kiradi. Atmosferadagi havo va namlikning ta'sirida ba'zan birlamchi (sulfid) polimetall ma'danli mineralllar ikkilamchi(oksidlangan)larga o'tishi

mumkin. Polimetall ma'danlar qo'rg'oshin, rux, mis, kumush va boshqa metallar olish uchun asosiy manba ekanini hisobga olgan xolda kolchedan-polimetall ma'danlashuv jarayonlarini o'rganish muhim sanaladi.

Genetik jihatdan kolchedan konlari sinklinal burmalarning boshlang'ich va iptidoiy rivojlanish davrida, suv ostida submarin sharoitda sodir bo'ladijan tarkibi bazalt-riolit, vulkanik jarayonlar (formatsiyalari) bilan bog'liq bo'ladi .

Shuning uchun bu tur konlari ko'pincha qadimiy ofeolit va regional metamorfizm oqibatida xlorit-epidotlashgan cho'kindi tog' jinslari tasmalari tarkibida uchraydi. Bunday tasmalar tarkibida kolchedan madanlari uzunligi bir necha km. bo'lgan qatlamlari xolida uchraydi. Genetik jihatdan barcha kolchedan konlari asos va nordon vulkanik jarayonlar xosilasi deb tan olingan. Bu jarayonlar yer sharining chuqur bazalt qatlamlarida xosil bo'ladijan vulkanik o'choqlarida yuqoriga qarab xarakat qiladigan gazsimon gidrotermal eritmalarining evolyutsiyasi oqibatida xosil bo'ladi. Agar eritmalar tarkibidagi foydali komponentlarning bazi-birlari yuqoriga chiqish jarayonida yo'l- yo'lakay ajralib qolsa vulkanik gidrotermal-metasomatik kolchedon konlari, qolgan qismi dengiz ostiga chiqib cho'kindi-vulkanik gidrotermal konlari xosil qiladi.

Kolchedan konlarining uch xil sanoatbob turlari ma'lum:

1 - Karelsk turi yoki oltingugurtli kolchedan konlari. Bu turdag'i konlar asosan oltingugurt kislotasi olishda xom ashyo sifatida foydalaniлади:

2 - Ural turidagi mis-kolchedan konlari. Bu turdag'i konlardan mis olinadi;

3 - Oltoy turidagi ko'pmetalli-kolchedan konlari. Bulardan mis, qo'rg'oshin va rux metallari olinadi. Bazan bu turlardagi konlardan asosiy komponentlardan tashqari qo'shimcha sifatida yana oltin, vismut, marginush, kadmiy, selen, tellur va boshqa elementlar ham olinan[5].

O'zbekistonning janubiy mintaqasida joylashgan Xonjiza va unga yondosh ma'danli maydonlar polimetall-kolchedanli konlar sirasiga kiradi.

So'nggi o'n yilliklarda paleovulqonlarning metallogenik ixtisoslashuvini o'rganish vulkanizm va ma'dan hosil bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ldi. Chunki paleovulqonlarda ko'pincha Au-Ag epitermal, kolchedan-polimetall (Cu-Pb-Zn-Au-Ag-Cd-In), kumush-polimetall, Sn-Ag porfirli va Cu±Mo±Au (Ag) porfirli, uran-molibdenli (noyob yer metallari bilan) konlar uchraydi.

Shuning uchin ham paleovulqonlarning eksploziv, ekstruziv, ayniqsa, vulqon bo'g'zi va bo'g'iz oldi fatsiyalarining metallogenik ixtisoslashuvi aniqlash uzoq vaqtidan beri xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari tadqiqotchilarining e'tiborini tortib kelmoqda. Biroq, O'zbekistonda ularga hali ham yetarlicha e'tibor berilmayapti. Hozirgacha vulqon-plutonik assotsiatsiyalarning ma'dandorligi muammosi to'liq hal etilmagan, ularning ma'dan-magmatik tizimlarning manbaasining birligidan kelib chiqib, shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini yetarli darajada olib berilmagan. Tog' jinslari, ma'danlar va ma'danoldi metasomatitlarining moddiy tarkibini o'rganishda, minerallar va vulqon shishalarida qamalib (konservatsiyalanib) qolgan ma'dan shakllantiruvchi flyuid mikroajralmalarini tadqiq qilishda, shuningdek, eksperimental petrologiya, mineralogiya va geokimyoning zamonaviy yutuqlari ushbu muammoning turli masalalarini hal qilishda yangicha yondashuvni talab qiladi.

Janubiy O'zbekiston paleovulqonlari faoliyati bilan bog'liq ma'dan shakllantiruvchi vulkanik tizimlarni mufassal tadqiq etish o'z navbatida vulkanogen formatsiyalar va fatsiyalarining metallogen ixtisoslashuvini aniqlash imkonini beradi[6].

**Xulosa.** Nordon paleovulqonlarni(1-rasm) otilish markazlarini (bo'g'zilarini) ishonarli aniqlash murakkab dala tadqiqotlarini talab qiladi. Buning uchun avvalo magmatik suyuqliklarni xarakatlanishga qulay depresson strukturalar-paleovulqon qurilmasidagi ko'plab yer yoriqlari o'zaro kesishgan zonalariga, nordon vulqon mahsulotlar egallagan huddudlarda vulkanogen jinslarning turli fatsiyalari makonda o'zaro qonuniyatli almashinishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, paleovulqonlarning otilish markazlarini (bo'g'zilarini) va parazit kanallarini aniqlashda yirik bo'lakli dag'al piroklastik jinslarni kam qalinlikdagi nordon lava qoplamlari, ularni esa o'z navbatida gumbaz xosil qilgan ekstruziv tanalar bilan almashinishi hamda ularni atrofida eruptiv daykalarning (parazit kanallar) halqasimon joylashganligi ham muhim strukturaviy-tektonik indikator hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

- Галь Л. Н., Кузьмин А. Г. Масс-спектрометрические элементный и изотопный анализы: особенности приборной реализации, Научное приборостроение, 2002, том 12, № 3
- Горжевский Д.И., Исакович И.З., Чеквандзе В.Б. Типы полиметаллических месторождений Рудного Алтая, их происхождение и методы поисков Издание:Недра, Москва, 1977 г.,
- Панкратьев П.В., Михайлова Ю.В. Колчеданно-полиметаллическое оруденение Южного Узбекистана ФАН УзССР, Ташкент, 1971 г
- Воробёва С.В. Природные типы колчеданных руд и критерии для прогноза и поиска промышленных руд на примере уралаю 2015 г.
- Асабаев Д. Х. Фойдали қазилма конларнинг генетик ва саноат турлари. Тошкент – 2013
- Saitov N., Mamarozikov U., Normatov O., Hamrayev A. Janubiy O'zbekiston paleovulqonlarining ma'dandorligi muammosiga doir, O'zMU XABARLARI 2023 3/2/1